

ONGSIZLIKNING PSIXIK DINAMIKASI: O'Z-O'ZINI ANGLASH

Ilmiy rahbar: Bobonov Xurshid

SHDPI ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Aliqulova Nozima Abdivali qizi

*SHDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi I-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiya va pedagogikada ilk ong tushunchasini keng tadqiq qilgan holda, bu tushuncha bilim, ko'nikmaga ega bo'lish olrqali ijodiy fikrlash doirasini kengaytirish, ilmiy bilishni rivojlantirish va kerakli xulosalar chiqarish haqida so'z yuritilgan

Kalit so'zlar: Ijtimoiy mahsul, ongsizlik, patologik hodisalar, gallyusinatsiya, til amaliy-haqiqiy ongdir.

Abstract: This article explores the concept of first consciousness in psychology and pedagogy, expanding the scope of creative thinking through the acquisition of knowledge and skills, developing scientific knowledge and drawing the necessary conclusions.

Keywords: Social product, unconsciousness, pathological phenomena, hallucinations, language is practical-real consciousness.

Аннотация: В данной статье, при обширном исследовании понятия первого сознания в психологии и педагогике, речь идет о расширении сферы творческого мышления, развитии научных знаний и получении необходимых выводов.

Ключевые слова: Социальный продукт, бессознательное, патологические явления, галлюцинации, языковое практически-реальное сознание.

KIRISH

Psixika voqelikning kishi miyasida aksi sifatida har xil darajalar bilan farqlanadi. Psixikaning odamga xos bo'lgan oliy darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan til yordamida muloqot qilish jarayonida shakllanishini ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi. SHu ma'noda ong marksizm klassiklarining ta'kidlashicha ijtimoiy mahsul bo'lib anglagan borliqdan buyuk boshqa narsa emasdir. Ongning strukturasi tuzilishi, uning muhim psixologik ta'rifi qanday. Uning birinchi ta'rifi-nomining o'zidayoq berilgan bo'lib, ong deganidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inson tafakkuri juda ham kuchli, ammo ko'pchilik shaxsalarda psixalogiyaga oid malaka va ko'nikmalarning yetishmasligi tufayli bu tushunchalarni noto'g'ri idrok qilishadi. Chunki ko'pchilik insonlardan so'ralganida ongni aql zakovat va tafakkur bilan adashtirishlariga guvohi bo'lamiz. Ko'pchilik shaxslarga ong hayvonlarda ham mavjud deb o'ylaysizmi?

kabi savol bilan murojaat qilganimizda ulardan Ha! degan javobni olishimiz mumkin. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki haligacha ko'pchilikda ong va ongsizlik tushunchalari haqida aniq qarashlar yo'q. Aslida onglilik faqatgina insonga xos xususiyat bo'lib inson zotini hayvondan farqlovchi tushuncha hamdir. Inson hayotining turli davrlarida yashar ekan uning ongi turli xil ta'sirlar ostida rivojlanib boradi. Insonlar ongligi tufayli yangiliklar yaratadi, atrof muhitni idrok qiladi, tushunadi, tafakkur qiladi va hayotga maqsadlar orqali qaraydi.

Ong orqali insonda turli xil bilish jarayonlari amalga oshadi, u tufali shaxslararo ijtimoiy va siyosiy munosabatlar bunyodga keladi. Ong - psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasidir. Bu ma'noda ong mutafakkirlar ta'kidlab o'tganlaridek, ijtimoiy mahsulotdir.⁹¹

Ongning birinchi xossasi - bu anglash demakdir. Inson ongi tevarak atrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig'indisidan iboratdir. Anglash tashqi olamdagi narsalarni tushunish bo'lib, uning tarkibiga muhim bilish jarayonlari kiradi.

Ongning ikkinchi xossasiga binoan, ongda ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasidagi aniq farq o'z ifodasini topadi, ya'ni odam "men" degan tushunchani "men emas" tushunchasidan farqini ajratadi. Odam o'zini bilish qobiliyatiga ega bo'lgan, ya'ni psixik faoliyatda o'z-o'zini tekshira oladigan yagona mavjudotdir.⁹²

Ongning uchinchi xossasiga asosan ong yordami bilan odamning maqsadni ko'zlash faoliyati ta'minlanadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning vazifasiga kiradi. Bunday faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab ko'riladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo'llari hisobga olinadi.

Ongning to'rtinchi xossasiga asosan turli munosabatlardan ongli ravishda turli his-tuyg'ular yuzaga keladi. Ong kishilar munosabatlarining yig'indisidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maqsadni ko'zlovchi faoliyatni amalga oshirishda va yo'nalishida kasallik oqibatida yoki biron-bir boshqa sabablarga ko'ra har qanday buzilishning yuz berishini ongning buzilgani deb qaramoq kerak.

Ongning to'rtinchi ta'rifi-uning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir.

Ong — psixik faoliyatning oliy shakli. U fakat insonga xos fenomendir. Ong, uning mohiyati masalasi eng qad. muammolardan biri. Ongni dastlab diniy va mifologik karashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ongni liniy tushuntirish uni iloxiy hodisa, xudo yaratgan mo'jiza tarzida talkin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson Ongi buyuk ilohiy aqlning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda

⁹¹ Safarovich Q. O. et al. TEENAGER CHILD PSYCHOLOGY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – C. 454- 462.

⁹² Umarov B.M. Psixologiya.T., 2012.

qad. bo‘lsada, ular hamon o‘zining ko‘plab tarafdorlariga ega. Kimki olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, Ong ham yaratganning qudrati deb hisoblaydi.⁹³

Ongsizlik (psixologiyada) — ong ishtirokisiz sodir bo‘ladigan ruhiy jarayon va holatlar. Ong, ko‘pincha, badan harakatida, xotira, xayolda na-moyon bo‘ladi. Real mavjud, lekin sezilmaydigan qo‘zg‘atgichlar vujudga keltiradigan javob ta’sirotlarida, asli ongli paydo bo‘lib, takrorlanishi natijasida avtomatlashib ketgan harakatlarda va boshqa holatlarda ro‘y beradi. Mac, odam o‘z o‘yxayollariga cho‘mgan holda uyiga qaytadi va har holda yo‘ldan adashmasdan keladi. Agar u biror xavfni sezib qolsa, bu xavfning sababi va qandayligini hali anglamasdan turib ham, himoya harakatini qiladi. Bemor psixikasida vujudga keladigan alahlash, gallyusinatsiya kabi patologik hodisalar, uxlash, gipnoz vaqtida, lunatizm va shahrik. chog‘ida yuz beradigan psixik faoliyat ham Ong holatiga kiradi. Freyd Ongni sof irratsionalis-tik tarzda talqin etadi. Uning fikricha, ong bilan Ong o‘rtasida murosasiz qarama-qarshilik bor. Insonning butun xattiharakati ana shu qarama-qarshilik bilan belgilanadi. Ongni odam anglashga va payqashga jur‘at etolmaydi, u insondagi azaliy mayllar maskanidir.⁹⁴

Ongsizlik sohasiga: biologik ehtiyojlar (jinsiy mayllar, tabiiy ehtiyojlar, ozuqaga bo‘lgan ehtiyoj va boshqalar); tilaklarni siqib chiqarish (kimningdir muhabbatini qozonishga behuda urinish, amalga oshmagan orzular, yashirin hafagarchilik); tushda sodir bo‘ladigan psixik hodisalar (tush ko‘rish); sezilmaydigan, lekin real ta’sir ko‘rsatadigan seskantiruvchilarga nisbatan javob reaksiyalari («subsensory» ta’sirlanishlar); avval anglangan, lekin takrorlanishlar tufayli avtomatlashgan va shuning uchun anglanmaydigan bo‘lib qolgan harakatlar; maqsadi anglanmagan faoliyatga nisbatan ayrim mayllar va boshqalar kiradi. Anglanmagan hodisalarga bemor odam psixikasida yuzaga keladigan alahlash, gallyutsinatsiyalar kabi ayrim patologik hodisalar ham kiradi.

XULOSA

Ongsizlik-kishini o‘zini tuta olmaydigan qilib qo‘yadigan taaassurotlar bilan bog‘liq psixik jarayonlar harakatlar va holatlar yig‘indisidir. Psixik holat sifatida ongsizlik voqelikni aks ettirishning shunday bir shakli hisoblanadiki, bunda harakat o‘rni va vaqtini mo‘ljallash qilish, yaxlitligi yo‘qoladi, hatti-harakatining nutq yordamida boshqarilishi buziladi. Ongsizlikka quyidagi psixik holatlarni kiritish mumkin: Uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko‘rish) sezilmaydigan lekin haqiqatda ham ta’sir ko‘rsatadigan kuzatuvchilarga javob reaksiyalari: oldinlari ong harakat bo‘lib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga ko‘ra endilikda anglanmaydigan bo‘lib qolgan harakatlar faoliyatiga undovchi ammo maqsad hissidan anglanmaydigan ayrim moyillar, ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro‘y beradigan ba’zi bir protologik hodisalarni-alahlash, ko‘ziga yo‘q narsalarning ko‘rinishi kabilarni ham ko‘rish mumkin. shularga, asosanib ongsizlikning ongga qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Ongsizlik-bu kishining xuddi ong kabi o‘ziga xos psixik

⁹³ Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”: – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013

⁹⁴ Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.

qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning etarli darajada bir xil bo'lmagan qismiga aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda bo'lgandir.

REFERENCES:

1. S.G.YAroshevskiy. A.N.Jdan. Bg'Yu.B. Gippereyter «Xrestomatiya» po istorii psixologii» M.Izd. «MGU»-2000.
2. A.N.Jdan. «Istoriya psixologii» M.Nauka. –1990 .
3. A.V.Petrovskiy. «Umumiy psixologiya» T.Uzb. 2005 yil.
4. 8- sinf Bialogiya (odam va uning salomatligi) Toshkent -2019
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foidalanilgan.Aktov, Abdulla. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. O.S.Qodirov. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
5. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
7. Safarovich Q. O. et al. O'QUVCHILAR XULQ-ATVORI PROFILAKTIKASIDA MAQSADGA YO'NALTIRILGAN TARBIVAVIY TA'SIR MODELI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 382-386.
8. Safarovich Q. O. et al. TARBIVASI QIYIN O'QUVCHILARNING XULQATVORI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH MASALALARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 367-371.
9. Safarovich Q. O. et al. TEENAGER CHILD PSYCHOLOGY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – C. 454- 462.
10. Umarov B.M. Psixologiya.T., 2012.
11. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”: – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
12. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2010.
13. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq. 2000. 9.Климов Й.А. “Общая психология”. – Спб., Питер, 2001
14. Крутций В.А. "Педагогик психология асослари".- Т.: Ўқитувчи.1986.
- 11.Радугина А.А. Педагогика и психология. - М., 2007.
15. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - Спб: Питер, 2007. 13.Расулов А.И. Психодиагностика.-Тошкент, “Мумтоз сўз”- 2010.
16. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash.- T. Fan.2003.
17. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.
18. reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/102983/4_mavzu.htm
19. http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/102983/4_mavzu.htm